

## MAKTAB O‘QUVCHILARNING KREATIV KOMPETENTLIKINI SHAKLLANTIRISH MEZONLARI

*Xujaniyozova Oygul Rajabovna*

*Urganch davlat universiteti v/b dotsenti*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim jarayonida maktab o‘quvchilarida kreativ qobiliyatni rivojlantirish yo‘llari va bosqichlarini yoritib berish yo‘llari bayon etilgan.*

*Kalit so‘zlar: kreativlik, kreativ kompetentlik, ijodkorlik, iroda, diqqat, qobiliyat, layoqat, tafakkur.*

## КРИТЕРИИ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ШКОЛЬНИКОВ

*Хужаниезова Айгуль Раджабовна*

*Доцент Ургенчского государственного университета*

*Аннотация: В данной статье описаны пути и этапы развития творческих способностей школьников в ходе образовательного процесса.*

*Ключевые слова: творчество, творческая компетентность, творчество, воля, внимание, способности, мышление.*

## CRITERIA FOR FORMING CREATIVE COMPETENCE OF SCHOOL STUDENTS

*Khujaniyozova Aygul Rajabovna*

*Associate Professor of Urganch State University*

*Abstract: This article describes ways and stages of creative ability development in schoolchildren during the educational process.*

*Key words: creativity, creative competence, creativity, will, attention, ability, thinking.*


**Kirish.** Ijodkorlik - insonning fan, texnika, ishlab chiqarish, madaniyat va boshqa sohalarda ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan yangilik yaratishi, kashf etishi bilan bog‘liq murakkab pedagogik va psixologik jarayon bo‘lib, inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, tafakkuri, irodasi faol ishtirok etadi, ijodda bilim, tajriba, iste’dod namoyon bo‘ladi. Buyuk mutafakkirlardan biri Abu Nasr Forobiyning ta’riflashicha “ijod - bilish jarayonida shunday ulug‘ fazilatki, o‘zi bilmagan holatda inson uni egallashi uchun boshqa hamma fazilatlarini ishga solishi kerak”. Shunday ekan ijod qilish jarayonida inson izlanadi, kuzatadi, tajriba olib boradi, natijalarni tahlil qilib mantiqiy xulosalar chiqaradi.

**Adabiyotlar tahlili.** Kreativ kompetentlik insonda mustaqil fikrlash sifatleri namoyon bo‘lishining eng asosiy va faol shakli hisoblanadi [1]. Barcha tariflar bir-biridan farq qilishiga qaramay, uning ba’zi umumiy jihatlarini ko‘rsatish mumkin.

Birinchiidan, kreativ kompetentlik natijasi sifatida olinadigan malaka va ko‘nikmaning sifat jihatidan yangilikka ega bo‘lishi;

ikkinchiidan, ushbu jihatlar kreativ ijodkorlikning kompetentligini dastlabki asoslarida mavjud bo‘lganligi;

uchinchiidan esa, har qanday kreativ ijodkorlik kompetentlik faoliyati intellektual izlanishni va amaliy taqozo etishi bilan belgilanadi.



e-mail: [oygul@mail.ru](mailto:oygul@mail.ru)

<https://orcid.org/0242-0220-0542-0400>

Maktab o'quvchilarda kreativ kompetentlik faoliyatini quyidagicha belgilariga ko'ra tasniflash mumkin:

-ijod turi (mahorat, innovatsiya, texnologik ta'lim, tashkilotchilik, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, pedagogik va psixologik, didaktik ta'minotini tashkil qiladi);

- ijod darajasi (kreativ ijod, multi ijod, mega ijod);

- ijodning davomiyligi (qisqa muddatli, o'rta muddatli, uzoq muddatli);

- ijodning shakli (innovatsion, ta'limiy, investitsion, aralash);

-umumiy jihatlariga ko'ra (yangi g'oyalarni hayotga tatbiq etish; prinsipial; innovatsiya va integratsiya; yangilikni amaliy qo'llash);

-kreativ ijodkorlikni ma'nosi va murakkabligiga ko'ra (ixtiro; kashfiyot).

Maktab o'quvchisining ijodkorligi uning masalalar yechishi, insho yozishi, tajriba ishlari, o'quv topshiriqlarini bajarishi bilan bog'liq muammoli vaziyatlarda mustaqil fikrlashi bilan namoyon bo'lishini ko'rsatdi.

**Muhokama va natijalar.** Tajribamizga ko'ra, o'quvchining kreativ ijodkorligi - o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotdagi dalil va hodisalarga bog'lay olishi, olingan natijalarni to'g'ri baholab, tahlil qilishi, egallanganlarini umumlashira olishidir.

Kreativ ijodiy faoliyatni o'qituvchi va o'quvchilarning bu jarayonga psixologik va pedagogik jihatdan yetarlicha tayyor emasliklari murakkablashtiradi. Muntazam ravishda muayyan usul, shakl, vositalarga tayanib qolish - yangi vaziyatlarga moslasha olmaslik, kutilmagan vaziyatlarda ish yurita olmaslikka olib keladi [2]. Bu psixologik va pedagogik holati sifatida turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin, jumladan: o'zgaral fikr va mulohazalarini umuman qabul qilmaslik; umumiy qabul qilingan nuqtai nazardan qat'iy himoyalash; yangi mazmun va vositalarga nisbatan eski usullarni qo'llash; yangi usullarda eski usullarning saqlanib qolishi; umuman yangi masalani yechishda an'anaviy usullarni qo'llash kabilardir.

Maktab o'quvchilari kreativ kompetentlik faoliyatini tashkil qilishda ikki o'zaro bog'liq vazifani e'tiborga olish lozim. Ularning birinchisi - o'quvchilar kreativ kompetentlik faoliyatida mustaqil fikrlashni va tahlil rivojlantirish, bilim

egallashdagi intiluvchanligi, ilmiy dunyoqarashini shakllantirilishi bilan; ikkinchisi - o'zlashtirilgan bilimlarni ta'limda va amaliy faoliyatda mustaqil qo'llay olishga o'rgatish bilan belgilanadi [3].

O'quvchilardagi kreativlik kompetentlikni o'rganish va uni baholash usullari, shuningdek kreativlik ijodkor kompetentlikni shakllantirish mezonlarini aniqlash va qo'llash asosida ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyalar samaradorligini belgilaydi. Quyidagi vazifalar ijobiy hal etildi:

- uzluksiz ta'lim tizimi mazmunining tahlili asosida o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilar kreativ kompetentlikni shakllantirildi;

- kreativ kompetentlikni o'rganish usullari, shuningdek kreativlikni shakllantirish mezonlari belgilab olindi;

- tajriba so'rovnomalar vositasida o'quvchilarda kreativ kompetentlik borasidagi asosiy tushunchalarni o'zlashtirildi;

- o'quvchilarda kreativ ijodkorlik kompetentlik sifatlarini rivojlantirish borasida ishlab chiqildi;

- o'quvchilarini kreativ ijodkorlik kompetentlikni shakllantirish uchun zarur didaktik shart-sharoitlar hamda ijodkor shaxs o'quvchilarda ahamiyatli sifatlarini shakllantirish tizimining didaktik modeli samaradorligi baholanib borildi.

O'quvchilarda ahamiyatli sifatlarini shakllantirish jarayonida pedagogik texnologiyalarga asoslangan trening mashg'ulotlari o'quvchilarda kreativ kompetentlikni shakllantirildi [5]. Nazariy hamda amaliy mashg'ulotlar, muammoli vaziyatli topshiriqlarni bajarishda o'quvchilarda ahamiyatli sifatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko'nikmalarni mustahkamlab borishda kreativ kompetentlik asosida shakllantirish usulidan foydalanish o'quvchilarda tayyorgarlik ko'rsatkichlarining yuqori darajaga ekanligini ko'rsatdi.

Kreativ ijodkorlik kompetentlik o'quvchilarning egallayotgan bilimlarini mustahkamligi va mukammalligini ta'minlash, ularda faol va mustaqil fikrlovchi shaxs xislatlarini shakllantirish, aqliy ahloqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi faoliyat turi hisoblanadi. Bu holat, ayniqsa bo'lajak mutaxassislarining fan asoslarini o'zlashtirishida, keyinchalik bu jarayonga bevosita rahbarlikni amalga oshirishda o'quvchilarda kreativ

kompetentlikka asoslangan yondoshuvlarni joriy etishida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchi shaxsiga xos bo'lgan kreativ kompetentlik bilim, ko'nikma va malakalari aniqlashtirilib olindi. Jumladan: kreativ kompetentlik bilimlari - yangi yechim ishlab chiqish uchun talab etiladigan tushuncha va tasavvurlarning bilish qobiliyati mahsuli sifatida; kreativ kompetentlik ko'nikmalari - shaxsning maqsadga yo'naltirilgan ijodiy faoliyatda, aqliy jarayon bosqichlarini tez va to'laqonli amalga oshirish darajasini ifodalashini taqozo etadi [6].

O'quvchilar kreativ kompetentlik faoliyatini rivojlantirish omillari har bir mavzu, har bir darsda o'quv faoliyatining asosi bo'lishi lozim. Kreativ kompetentlik faoliyati o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining barcha qirralarini samarali tashkil qilish, ta'lim jarayonining sifatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kreativ kompetentlik faoliyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Iqtidorli o'quvchilarda ijodkor mutaxassis kadrlar tayyorlash bilan bir qatorda innovatsion g'oyalar va texnologiyalarning muhim manbaini shakllantirishni talab etadi.

Shaxs individual rivojlanishining muhim omillaridan biri uning yoshiga bog'liq bo'lgan xususiyatlaridir. Yoshlarda har bir yosh bosqichi o'zining rivojlanish omillariga, qonuniyatlariga va o'zgarishlariga ega bo'lib, ular shaxsning xarakteri, temperamenti, qobiliyati va bilish jarayonlariga bevosita ta'sirini o'tkazadi. Shaxsning yosh davrlari ichida o'smirlik davri eng murakkab va shu bilan birga muhim taraqqiyot bosqichidir. O'quvchi o'g'il va qizlar hayoti hamda faoliyatining yangi sharoiti, ularning faol o'quv ijtimoiy, mehnat faoliyatlari bo'lg'usi mutaxassis shaxsining shakllanishida o'z ta'sirini o'tkazadi. Shaxs kreativ kompetentlikni tashkil qilishda faqatgina bitta, eng asosiy xususiyatga e'tibor berish bilan cheklanib qolish belgilangan maqsadlarga erishish imkonini bermaydi [7].

O'quvchilarni kreativ kompetentlik faoliyatiga tayyorlash strategiyasini quyidagi yo'nalishlarda amalga oshadi deb hisoblash mumkin:

- o'quvchilar e'tiborini masalani hal qilishda qo'llanilgan usulning umumiyliqi, keng qamrovligiga qaratish;
- o'quvchilarni kreativ kompetentlik usullariga o'rgatishni dars maqsadi sifatida emas, balki darsda

qo'yilgan vazifani yanada samarali hal qilishga qaratilgan yangi yo'l, imkoniyat sifatida qaralishi;

- o'quvchilar o'zlari mustaqil xulosa chiqarib topadigan yangi g'oyalar kreativ kompetentlik darslarining asosiy mahsuli sifatida qaralishi;

- axborotlarni yig'ish, kreativ kompetentlikni yo'lga qo'yishning muhim jihati sifatida qaralishi;

- Inson kreativ kompetentlik sifatlarini tarbiyalashni ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan mashg'ulotlarining muhim, qamrovi jihatidan dars va darsdan tashqari mashg'ulotlardan ham tashqariga chiqadigan masala sifatida qaraladi.

O'quvchilar kreativ kompetentlikni rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari, o'quvchilar kreativ kompetentlikni tashkil etish va rivojlantirishning kreativ pedagogik texnologiyalari orqali o'quvchilar kreativ kompetentlik faoliyatini tashkil etish intellektual o'qitish tizimlarini ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

Ta'lim mazmuni uzviylikini ta'minlashda takrorlanmaslikni ta'minlash asosida fanlar uchun ajratilgan o'quv soatlari, o'quvchi va o'qituvchilarning vaqtdan samarali foydalanishga alohida ahamiyat qaralishi, o'quvchi yoshlarni mustaqil fikrlash va mustaqil bilim olish qobiliyatini rivojlantiruvchi bo'limlar, masala va testlar o'z aksini topishi lozim [8].

Kreativ kompetentlikni shakllantirishda pedagogik asoslarni taraqqiy ettirishning zamonaviy bosqichida umumta'lim maktabi o'quvchilari kompetentlikni ta'minlashning usulologik talablari hamda didaktik shart-sharoitlarini belgilashda yangi yondoshuvga asoslangan o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish zarurati yuzaga kelganligini ko'rsatmoqda. O'quvchilar kreativ kompetentlikni rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari quyidagilarga asoslanadi:

nazariy bilimlarning amaliy ko'nikma va malakalarga o'tib borishi ustuvorligi; ta'limiy, tarbiyaviy hamda rivojlantiruvchi muhitning birligi;

ta'lim olish hamda ijodiy faoliyatga bo'lgan ijobiy motivatsiyani rag'batlantirish; muammolilik; individual hamda differensial yondoshuvlarning uyg'unligi;

ta'lim shaxs faolligini ta'minlashga yo'naltirilganligi;

ta'lim mazmuni hamda o'quv-didaktik materiallarning o'quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilgan.

O'quv-tarbiya jarayoni motivatsiyasi o'quvchilarni faollikka, hamjihatlikka, mashg'ulotning barcha bosqichlarida yuqori darajadagi qiziquvchanlik bilan ishtirok etishga da'vat qilishni maqsad qilib qo'yadi. Motivatsiyani uyg'ota olish ijodkor o'qituvchilar mahoratining muhim tarkibiy qismi sanaladi. Motivatsion pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning ta'lim jarayoniga tez kirishib ketishini ta'minlaydi va aksincha beriladigan topshiriqlarning me'yorida ortiq murakkabligi, olinadigan natijalar mavhumligi motivatsiyaning turg'un bo'lmasligiga olib keladi.

Kreativ pedagogik texnologiyalarni joriy etishda hamkorlik va hamjihatlik; avtodidaktikaning ustuvorligi; rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillarga rioya etiladi. Taklif etilayotgan texnologiyani ikki yo'nalishdagi yondoshuv:

a) amaliy bilishga asoslangan izlanuvchanlik yondoshuvi;

v) nazariy bilishga asoslangan izlanuvchanlik yondoshuvida joriy qilish mumkin.

O'quvchilar kreativ kompetentlikini rivojlantirish uzviyligini ta'minlashda texnologiya fanining imkoniyatlari, o'quvchilar kreativ kompetentligi uzviyligini ta'minlash jarayonlarini modellashtirish, uzluksiz ta'lim mazmunini modernizatsiyalashda o'quvchilarning kreativ kompetentlikini rivojlantirish mexanizmlari, kreativ kompetentlik faoliyati asosida o'quvchilarda ahamiyatli sifatarni shakllantirish lozim. [9].

**Xulosa.** Pedagogik texnologiya samaradorligini tadqiq etishda pedagogik tizim tarkibiga pedagogik kuzatuv elementlarining kiritilganligi, ya'ni mazkur ta'lim texnologiyasini amalga oshirish muhim o'quvchilarda jihatlarni shakllantirishga qaratilganligiga e'tibor berildi. Chunki, pedagogik kuzatuvga asoslangan pedagogik texnologiya uni to'g'ri amalga oshirish asosida erishilishi lozim bo'lgan imkoniyatlar chegarasini belgilab beradi. O'quvchilarda ahamiyatli sifatlarini shakllantirishni

yanada samaraliroq tashkil etish ta'lim jarayoniga yangi mashqlar va treninglarni joriy etishni taqozo etdi. Bundan tashqari, pedagogik kuzatuv ta'lim texnologiyasida mavjud ayrim nuqsonlarni bartaraf etish imkonini beradi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Креативная педагогика: методология, теория, практика / под ред. Ю. Г. Круглова. М.: МГОПУ им. М. А. Шолохова: Альфа, 2002, 240 с.

2. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshq. Pedagogika.-T.:TDPU, 2013. 15-25 b.

3. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va ped mahorat. T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2003 - 176 b.

4. Шульга Е.П. Структура и развитие креативных способностей младших школьников. Автореферат дис... канд. пед. наук. – Москва, 2010. – 23 с.

5. Alimov N.N. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarini texnik ijodkorlik faoliyatiga tayyorlash usulikasi (umumkasbiy fanlarni o'qitish misolida). Ped.fan. nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.- T.: 2009.-233 b.

6. Чапаев Н. К. Креативная педагогика: проблемы, противоречия, пути их разрешения. // Образование и наука: Известия Уральского отделения Российской академии образования. – 2011. – № 10. – С. 3–27.

7. Burton P. Creativity in Hong Kong schools // *World English*, 2010. –V. 29. № 4. – P. 493-507;

8. Fisher D. & Frey N. Better learning through structured teaching: A framework for the gradual release of responsibility. – Alexandria, VA: ASCD, 2008.

9. Fryer M. & Fryer-Bolingbroke C. Cross-Cultural Differences in Creativity// *Encyclopedia of Creativity* (Second Edition), 2011. –P.326–334.

